

TIJORAT BANKLARIDA RAQAMLI IQTISODIYOT

Abduvaliyeva Risolat Dilshod qizi

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada tijorat banklarining raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish jarayoni, uning foyda va zararlari tahlil qilingan. Raqamli iqtisodiyot banklarning moliyaviy ma'lumotlarni boshqarish, risklarni tahlil qilish, orqali zamonaviy texnologiyalar orqali iqtisodiy faoliyatni tashkil etish, internet va texnologiyalarning integratsiyasi asosida rivojlantirish haqida o'rganiladi.*

Kalit so'zlar: *Raqamli iqtisodiyot, elektron tijorat, bozor.*

Аннотация: *В данной статье анализируется процесс развития цифровой экономики коммерческих банков, его польза и вред. Цифровая экономика изучается об управлении финансовой информацией банков, организации экономической деятельности с помощью современных технологий посредством анализа рисков, развитию на основе интеграции Интернета и технологий.*

Ключевые слова: *Цифровая экономика, электронная коммерция, электронная торговля, рынок.*

Abstract: *This article analyzes the process of developing the digital economy of commercial banks, its benefits and disadvantages. The digital economy is studied as the development of banks' financial information management, risk analysis, organization of economic activity through modern technologies, and the integration of the Internet and technologies.*

Keywords: *Digital economy, e-commerce, electronic trade, market.*

KIRISH

Raqamli iqtisodiyot - bu intellektual faoliyat maxsuli hisoblanib, uzoq davrda shakllangan murakkab tizim sifatida uning tarkibi texnik, axborot, matematik ta'minotidan iborat bo'lib, real sektorlarning ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatini raqamli texnologiyalarini keng qo'llashga asoslangan tizimidir. Raqamli iqtisodiyot o'ta murakkab tizim bo'lib, uni inson shakllantiradi, bu keng qamrovli tizimni inson boshqaradi, tarkibini belgilaydi, tashkil qiladi, rejalashtiradi va bularning hammasi barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashga, inson hayotini, turmush darajasini yuksaltirishga qaratilgan bo'ladi. Raqamli iqtisodiyotning zamonaviy holati, uning o'zaro uzviy bo'liq holdagi tashkil etuvchi elementlari faoliyatining jadal rivojlanishi XX-XXI asrlariga to'g'ri keladi. Axborot texnologiyalarini yaratishga qaratilgan jo'shqin jarayonlar o'tgan asrning oxiri va bugungi yangi asr boshida ishlab chiqarilgan servis va tizimlar, ularning o'zaro harakatlanishi raqamli standartlarni takomillashtirishga qaratilgan yangiliklar, elektron deb nomlangan biznesning yangi o'ziga xos ko'rinishi shakllanishidagi innovatsion jarayonlarning jadal rivojlanishiga poydevor bo'ladi. An'anaviy tarmoq va ishlab chiqarishlari to'g'risida bayon qilganimizda esa, biz ko'proq qo'shilgan qiymatning elektron zanjirini eslab turamiz. Shunday

qilib, raqamli iqtisodiyot-bu tarmoq emas, balki bu hayotimiz tarzi, biznes, ijtimoiy soha va butun jamiyat rivojlanishining asosidir. Buni, Yevropa ittifoqi davlatlarining yagona raqamli bozor barpo qilib, katta muvaffaqiyatlarga erishishida ko'rishimiz mumkin.

Raqamli iqtisodiyotning O'zbekiston banklaridagi hozirgi holati

Moliyaviy Texnologiyalar (Fintech): Bugungi kunda O'zbekiston banklari o'z xizmatlarini raqamlashtirishga katta e'tibor bermoqda. Masalan, masofaviy bank xizmatlari, mobil banking, onlayn platformalar, onlayn to'lovlar va shaxsiy hisob raqamlarini boshqarish uchun ilovalar va dasturlar keng joriy etilgan. Ushbu texnologiyalar xizmat ko'rsatish tezligini oshiradi va mijozlarning kundalik moliyaviy ehtiyojlarini osonroq qondiradi va mijozlar o'z ish joylarini tashlab bankga kelishlari shart emas bo'ladi - barchasi oson va qulay bitadi.

Milliy to'lov tizimlari: HUMO va UZCARD kabi tizimlar raqamli iqtisodiyotda muhim o'rin tutadi. Ular orqali elektron to'lovlarning o'sish sur'ati, elektron tijoratda qulaylik yaratmoqda. Bular O'zbekistondagi eng yirik to'lov kartalari hisoblanadi. Humo kartalari hozirgi kunda O'zbekiston bo'ylab keng tarqalgan va xalqaro to'lov xizmatlari bilan hamkorlikda ishlaydigan karta hisoblanib bu kartadan foydalanuvchilar bemaol boshqa davlatga borganlarida foydalanishlari mumkin. Humo kartalari bankomatlar va POS-terminal tizimlarida ishlaydi, shuningdek, onlayn to'lovlar uchun ham qulayliklar taqdim etadi. Tizim foydalanuvchilarga nafaqat pul o'tkazmalari, balki kredit, qarz olish va boshqa moliyaviy xizmatlar taqdim etadi. Humo va Uzcard tizimi O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotning rivojlanishiga katta hissa qo'shmoqda.

Uzcard kartalari esa O'zbekistondagi ko'plab tijorat banklari tomonidan chiqarilgan to'lov kartalari orqali ishlaydi. Bu tizim mamlakat ichidagi banklar o'rtasida naqd pul va naqd bo'lmagan to'lovlarni amalga oshirishni osonlashtiradi.

Raqamli iqtisodiyotning iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri

Rivojlangan davlatlarda YaIM tarkibida raqamli iqtisodiyot ulushi 5.6% ga, rivojlanayotgan davlatlarda esa 5.0 foizga to'g'ri kelmoqda. "Paynet" iqtisodiyotiga moslashish reytingida Rossiya YaIM tarkibida 2018 yil 3.5foiz bo'lib "Paynet" iqtisodi va sevisida rubl aylanmasi 1400.50 milliard rubl bo'lib elektron to'lovlar bozorida 607mlrd.rubl tushum bo'lgan Rossiyaning 46% aholisi to'lovlarni internet orqali amalga oshirgan.

Raqamli iqtisodiyot mahsulotlari:

1. Elektron tijorat
2. Elektron biznes
3. Elektron banking
4. Elektron savdo

1-jadval. G-20ga kiruvchi yirik davlatlarda raqamli iqtisodiyotning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi¹ (mlrd so'm)

Davlat nomi	2010 -yil	2016-yil	2026- yil
Buyuk Britaniya	8.3	12.4	16.3
Janubiy Koreya	7.3	8	16.3
Xitoy	5.5	6.9	18.4
Yevropa Ittifoqi	3.8	5.7	9.4
Hindiston	4.1	5.6	14.7
Yaponiya	4.7	5.6	11.8
AQSH	4.7	5.4	12.3
Meksika	2.5	4.2	6.7
BAA	2.2	3.8	7.1
Avstraliya	3.3	3.7	6.1
Kanada	3.0	3.6	5.9
Argentina	2.0	3.3	5.1
Rossiya	1.9	2.8	7.4
JAR	1.9	2.5	4.9
Braziliya	2.2	2.4	5.1

Raqamli Iqtisodiyotning Bank Sohasiga Ta'siri

Bank operatsiyalarining avtomatlashtirilishi: Sun'iy intellekt yordamida kreditlash jarayonini tezlashtirish va xavf tahlilini amalga oshirish kabi imkoniyatlar rivojlanmoqda.

Big Data va Data Analytics: Banklar mijozlar ma'lumotlarini tahlil qilish orqali aniq va moslashtirilgan xizmatlarni taklif qilishi mumkin.

Kelajakdagi Imkoniyatlar va O'sish Yo'nalishlari

Raqamli xizmatlarni kengaytirish: Kichik va o'rta biznes (KO'B) uchun maxsus raqamli moliyaviy xizmatlarni joriy etish. Bu bozor segmentini raqamli iqtisodiyotga jalb qilish imkoniyatini beradi. Blokcheyn va kripto-aktivlar: O'zbekistonda ushbu texnologiyalarning bank sektorida qanday o'zgarishlarga olib kelishi haqida kelajakda tadqiqotlar olib borish kerak. Ba'zi banklar blokcheyn texnologiyasidan foydalangan holda operatsiyalarni xavfsiz va tez amalga oshirish yo'llarini qidirmoqda. Xalqaro tajribalar va ularning joriy etilishi: Xitoy va Yevropa davlatlarida raqamli xizmatlarning muvaffaqiyati haqida tahlillar olib borish orqali kelajakda O'zbekiston banklarida qo'llanishi mumkin bo'lgan o'zgarishlarni aniqlash lozim.

Raqamli iqtisodiyot bugungi kunda butun dunyoda iqtisodiy faoliyatning yangi shakllarini shakllantirib, mamlakatlar rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Bu jarayon O'zbekiston uchun ham muhim ahamiyatga ega, chunki yangi o'zgarishlar yangiliklar biz uchun juda katta ahamiyatga ega.

¹ Raqamli iqtisodiyot. M. Butaboyev. Toshkent, 2021

Dunyo miqyosida raqamli iqtisodiyot ahamiyati

Global o'sish: Raqamli iqtisodiyot jahon yalpi ichki mahsulotining sezilarli qismini tashkil etib, iqtisodiy o'sishning asosiy drayverlaridan biriga aylangan. Masalan, Buyuk Britaniyada raqamli iqtisodiyot milliy yalpi ichki mahsulotning 12 foiziga yetgan. Bizda esa hozrgi 2023-yil pragnoziga ko'ra O'zbekistonning yalpi ichki mahsuloti o'sish sur'ati, so'nggi yillarda, umumiy o'sish tendensiyasini ko'rsatmoqda.

Texnologik innovatsiyalar: Sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar tahlili, blokcheyn va Internet of Things (IoT) kabi texnologiyalar yangi biznes modellarini yaratib, iqtisodiyotning turli sohalarida samaradorlikni oshirmoqda.

Elektron tijorat: Global miqyosda elektron tijorat hajmi ortib bormoqda va an'anaviy savdo usullarini o'zgartirmoqda. Bu jarayon iste'molchilarga qulaylik yaratib, bizneslar uchun yangi imkoniyatlar ochmoqda.

Raqamli iqtisodiyotning O'zbekistonga ta'siri

Davlat strategiyasi: O'zbekiston "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini qabul qilib, iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha va davlat boshqaruvi tizimining jadal raqamli rivojlanishini ta'minlashni maqsad qilingan.

Bank sektori: Raqamli texnologiyalar bank xizmatlarini modernizatsiya qilishda muhim rol o'ynamoqda. Masalan, mobil banking, onlayn to'lovlar va elektron tijorat xizmatlari kengayib, mijozlarga qulaylik yaratmoqda.

IT-parklar: Zamonaviy infratuzilmaga ega bo'lgan "IT-park"lar tashkil etilib, raqamli iqtisodiyot texnologik va biznes jarayonlarini rivojlantirish uchun platforma yaratmoqda.

Avtomatlashtirishning birinchi zarbasi

Bankimizda odamlar robotlardek ishlaydi. Ertaga esa odamlardek ishlaydigan robotlar paydo bo'ladi. Bankga ham o'zgarishlar ta'sir qiladimi yo'qmi, muhim emas - ular baribir yuz beradi. Bank sohasi uchun achchiq haqiqat shuki, bizga kamroq ishchi krak bo'ladi.

Djon Krayn


Keyingi 10 yilda turli omillar - taklif talab raqobat, yuridik va iqtisodiy jihatlar sun'iy intellektga sarmoya kiritishga undaydi. Bunday sarmoyalar daromadni oshirish va zamondan ortda qolmaslikni ko'zlaydi. Umuman olganda, sun'iy intellektning to'rta asosiy afzaligi bor.

1. Biznes uchun yangi imkoniyatlarni aniqlash;
2. Takrorlanuvchi vazifalarni avtomatlashtirish;
3. Xodimlarning mehnat unumdorligini oshirish;
4. Raqobatbardoshlikni oshirish.

Sun'iy intellekt ko'plab sohalarda qo'llaniladi, lekin o'zgarishlar birinchi navbatda axborot texnologiyalari, moliya va buxgalteriya, mijoz kechinmasi va mijozlarni jalb etish, shuningdek, xizmat sifatida aks etadi.

2020 yilga borib sun'iy intellektning moliyaviy insitutlar raqobatbardoshligiga ko'rsatadigan ta'siri²

² Raqamli iqtisodiyot. M. Butaboyev. Toshkent, 2021



Bazaviy raqamli bankingdan o'tib

Raqamli muhitga o'tish moliyaviy jihatdan o'zini to'la oqlaydi. Bank xodimlari ishtirokidagi operatsiyalar onlayn yoki mobil ilova orqali amalga oshiriladigan tranzaksiyalardan 20 baravar qimmat. Bundan tashqari, ular noqulay. O'z-o'ziga xizmat ko'rsatish ko'rsatkichi bo'yicha yetakchi mamlakatlar (Gollandiya, Polsha, va Avstraliya)da ko'p tranzaksiyalar inson bilan aloqaga kirishmagan holda amalga oshiriladi. Biroq AQShda respondentlarning 40 foizi ilgariidek har chorakda omonatga pul qo'yish uchun bankka boradi. 21 foizgina raqamli kannalardan va 18 foizi bankomatlardan foydalanadi.

Banklar va kredit birlashmalari mijoz ma'lumotlarini qayta ishlash, chuqurlashtirilgan tahlil va yangi raqamli instrumentlar, jumladan, ovozli yordamchi singari texnologiyalarni o'rganish kerak. Tadqiqotlarga ko'ra, AQShda respondentlarning 25 foizi smartfonlarda "Siri", "Alexa", yoki "Google Assistant" uyda esa "Alexa" yoki "Google Home" ishlatadi. Ammo AQShda, Avstraliya va Buyuk Britaniyada respondentlarning atigi 5-6 foizi ovozli boshqaruv orqali moliyaviy operatsiyalarni amalga oshiradi, 20-25 fozili kelgusida tranzaksiyalari uchun bu texnologiyadan foydalanishni istaydi.

Raqamli iqtisodiyotning foydalari

Raqamli iqtisodiyotni foydalari haqida gapiradigan bo'lsak, birinchi o'rinda tezkor va samarali xizmatlarni taqdim etadi, shuningdek:

1. Internet va raqamli texnologiyalar biznes jarayonlarini tezlashtiradi. Masalan, onlayn savdo va to'lov tizimlari mijozlarga tez va oson xizmat ko'rsatishni ta'minlaydi.

2. Tashkilotlar o'z jarayonlarini avtomatlashtirishi va optimallashtirishi mumkin, bu esa xarajatlarni kamaytiradi.

3. Yangi ish o'rinlarini yaratadi, misol qilib aytadigan bo'lsak IT mutaxassislari, Data ilmiy tadqiqotchilari, raqamli marketing bo'yicha mutaxassislari va boshqalar.

Bozor global kengayishi uchun imkoniyat yaratadi. Internet orqali bizneslar butun dunyo bo'ylab mijozlarga erishishlari mumkin. Bu ularning bozor ulushini kengaytiradi. Onlayn savdo va xizmatlar orqali xalqaro savdoga kirish osonlashadi.

Raqobatni kuchaytiradi. Internet orqali global bozorda raqobat keskinlashadi. Mahalliy bizneslar uchun raqamli iqtisodiyotda katta xalqaro korxonalar bilan kurashish qiyin bo'lishi mumkin. Bu kichik va o'rta bizneslarning bozorga kirish imkoniyatlarini cheklashi yoki ularni yuqori raqobat sharoitida qoldirishi mumkin.

Raqamli iqtisodiyotning zararlari

Endi uni zararlari haqida gaplashadigan bo'lsak, maxfiylik va xavfsizlik muammolar haqida raqamli iqtisodiyotning kengayishi bilan foydalanuvchilarning shaxsiy ma'lumotlari va moliyaviy ma'lumotlari xavf ostida qolishi mumkin. Ma'lumotlar uzatishda tarmoq hujumlari, fishing, viruslar kabi tahdidlar yuzaga keladi, va yana dolzarb muammolardan biri ayrim ish o'rinlarini kamayishi. Avtomatlashtirish va sun'iy intellekt texnologiyalarining joriy etilishi ba'zi ish o'rinlarining yo'qolishiga olib kelishi mumkin. Masalan, oddiy hisob-kitobchi, kassirlar va ba'zi xizmat ko'rsatish sohasidagi ishchilarni robotlar va avtomatlashtirilgan tizimlar almashtirishi mumkin. Masofaviy ishlash va avtomatlashgan tizimlar an'anaviy sanoat ishlarini kamaytirishi mumkin.

Xulosa

Raqamli iqtisodiyot bugungi kunda yangi innovatsiya va texnologiyalarga o'tayotgan davrda juda ham muhim hisoblanadi. Xulosa qilib shuni ayta olamizki, Raqamli iqtisodiyotning mamlakatlar iqtisodiyotidagi o'rni va jahon iqtisodiy taraqqiyotidagi ahamiyatini anglagan holda quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

1. Rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarda raqamli iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlashning yanada keng qamrovli usullarini o'rganish;
2. Hukumatlar, fuqarolik jamiyati, akademiya, ilmiy hamjamiyat va texnologiya sohasi yangi echimlarni topish uchun birgalikda tadqiqot ishlarini rivojlantirish;
3. Raqamli iqtisodiyot uchun yosh va iste'dodli kadrlarni tayyorlash;
4. Davlat innovatsion va raqamli ekotizimni qo'llab-quvvatlash sohasida raqamli ta'limning zamonaviy metodlarini qo'llab-quvvatlashi, va risklarni pasaytirish choralarini ko'rish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Raqamli iqtisodiyot zamonaviy dunyoning ajralmas qismiga aylanib, iqtisodiyot va ijtimoiy hayotda tub o'zgarishlarni olib kelmoqda. Undan samarali foydalanish uchun innovatsiyalarni rivojlantirish, infratuzilmani takomillashtirish va kiberxavfsizlikni ta'minlash muhimdir. Shu bilan birga, ijtimoiy tengsizlik va texnologik bo'shliqlarni kamaytirish bo'yicha choralar ko'rish zarur. Raqamli iqtisodiyotning barqaror rivoji, mamlakatlarning global raqobatbardoshligini oshirishda hal qiluvchi omil bo'ladi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Bank 4.0 doimo siz bilan- hozir vas hu yerda. Brett King-Toshkent:”Ilm-ziyo-Zakovat 464 b,
2. <https://www.texnoman.uz/post/raqamli-iqtisodiyot-nima.html>
3. <https://aniq.uz/uz/yangiliklar/raqamli-iqtisodiyot-nima>
4. Gulyamov, S.S. va b. (2019). Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalari. -T.: Iqtisod-Moliya. 396 b.
5. World Trade Statistical Review 2019 - World Trade Organization.
6. Kurpayanidi, K., Ilyosov, A. (2020) Problems of the use of digital technologies in industry in the context of increasing the export potential of the country// ISJI Theoretical & Applied Science. p. 113-117.
7. Abdullayev, A. M., & Kurpayanidi, K. I. (2020) Analysis of industrial enterprise management systems: essence, methodology and problems. Journal of Critical Reviews, 7 (14), 1254-1260. <https://dx.doi.org/10.17605/OSF.IO/E6JFS>
8. ¹ Raqamli iqtisodiyot. M. Butaboyev. Toshkent, 2021